

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**TARIX DARSALARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH-O'QUVCHILAR
FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI MUHIM OMILDIR**

Tolipova Marhabo Farxodovna

Samarqand viloyati Narpay tumani

64- umumta'l'm maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Ta'l'm-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirish, shaxsning ta'l'm markazida bo'lismeni va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'l'm muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z soxasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini ilg'or pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Tarix darslarida interfaol usullardan foydalanish-o'quvchilar faolligini oshirishdagi muhim omildir. Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanganda, albatta sinf xonasida shart-sharoit yaratib olish bilan birga, o'quvchilarda interfaol usullarda dars o'tish, ularni faol harakat qilishda ko'nikma hosil qilish kerak bo'ladi. Shuningdek, interfaol usullardan foydalanganda o'quvchi quyidagilarni bilishi lozim:

- Interfaol usullar,.. uning mazmun-mohiyati;
- Ta'l'm maqsadini amalga oshirishda interfaol usullarning o'rni va roli;
- fanlar bo'yicha interfaol usullarni qo'llash printsiplari;
- ta'l'miy va izchillik o'yinlari;
- muammoli rivojlantiruvchi tahlim metodlari;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarni tashkil qilish va taominlash yo'llari;
- o'quvchilarning mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullari;
- ko'rgazmali o'qitish usullari;
- Ta'l'm-tarbiyani faollashtiruvchi usullar;

Interfaol usullarda o'qitishda o'quvchilar quyidagilarga ega bo'ladilar:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiy ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi.
2. 4-5 a'zo tarkibidan iborat o'quvchilar kichik guruhlarda ishlashadi.
3. O'quvchilar umumiy vazifalarni yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini o'tkazish uchun ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvorni ishlatishadi.

4. O'quvchilar ijobiy yoki mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalar yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini o'tkazishda o'quvchilar bir-birlariga ko'mak berishadi.

O'quvchilar o'z ishlarini natijasiga yoki boshqacha aytganda, o'qishga, ta'lim olishga shaxsan masuliyatlikni va javobgarlikni xis qiladilar. Quyida interfaol usullardan ayrimlari bilan tanishib o'tamiz:

- Aqliy hujum
- Kichik guruhlarda ishslash
- Suhbat
- Juftlikda ishslash
- Kichik mahruza
- Rolli o'yinlar
- Ishchanlik o'yinlar
- Bahs munozara va hokazo.

O'quvchilarning ko'nikma va malaka me'yorini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1.O'qiganda - 10 %
- 2.Eshitganda- 20%
- 3.Ko'rganda -30%
- 4.Eshitib ko'rganda- 50%
- 5.Muhokama, bahs-munozara-70%
- 6.Shaxsan o'zi bajarganda- 80%
- 7.Sinfdoshlari bilan bajarganda- 90%

Shu o'rinda Xitoy xalq maqolini keltirishni lozim deb topdik: "Menga gapirsang esdan chiqaraman, menga ko'rsatsang eslab qolishim mumkin, menga o'zimga ishslashga imkon ber, shunda bu batamom meniki bo'lib qoladi".

Xulosa shuki, interfaol metodlarini qo'llab dars o'tilganda sinfda qoloq o'zlashtirmaydigan o'quvchi qolmaydi. O'quvchilar o'rtasida do'stona muhit yaratiladi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularni darsga qiziqishlari ortadi. O'quvchilarni kelgusi mustaqil bilim olishlariga hunar o'rganishlariga imkon yaratadi.

O'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalariga oid noan'anaviy usullari atamalariga ko'z tashlansa, ularning ko'pchiligi muallimlar uchun g'ayrioddiy tuyuladi. Atama nomlarining boshqacharokq aytilishiga sabab esa, ular AQSH va Yevropaning rivojlangan mamlakatlar maktablarida joriy etilib, sinalib, sayqallangan hamda o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganidandir. Albatta, biz uchun ilg'or deb tan olinayotgan bu usullarni birdaniga dars jarayoniga to'laligicha olib kirish qiyin. Chunki bunday usullarda dars o'tilishiga o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham ko'nikma hosil qilishmagan. Zero, ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi o'quvchilar fikrlesh qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat ekan, ilg'or usullarni darslarimizga qadam-baqadam joriy etib borishimizni hayot taqozo etmoqda.